O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVAЦИYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MUNDARIJA

IQTISODIYOT

Н.В.Ивонина, Ф.Ч.Бойко
Сравнительный анализ моделей организатци активного туризма в европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5
Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов
Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov
Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22
L.S.Yuldasheva
Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26
M.T.Xidirov
Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30
D.I.Saydullayeva
Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35
F.A.Yuldashev
Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38
R.Orziboyev
Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43
С.Вусала
Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47
Y.A.Xudoyqulov
Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51
R.S.Raupova, N.Rajabova
Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55
E.I.Tursunaliyeva
Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58
G.A.Raximova
Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62
M.Z.Jumayeva
Globallashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67
A.A.Qambarov
Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72
B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov
Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77
L.E.Tursunova
Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83
A.A.Mo'ydinov
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87
M.K.Soipova
Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93
M.K.Soipova
Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikga erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96
G.A.Qamariddinova
"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a41

UO'K: 61(091)(092)

ABU ALI IBN SINONING "URJUZA" SHE'RIY DOSTONINING FALSAFIY TAHLILI

СУЩЕСТВЕННЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В ТРУДЕ АБУ АЛИ ИБН СИНА "УРДЖУЗА"

ABU ALI IBN SINO IMPORTANT FACTORS IN "URJUZA"

Yuldasheva Lola Sagdullayevna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk qomusiy olim, o'rta asr Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi, xususan, uning tibbiyot sohasidagi bebaho asarlari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda allomaning "Tib qonuni" asarining ilmiy-falsafiy ahamiyati va unda bayon etilgan tibbiy qarashlar keng yoritilgan. Ayniqsa, Ibn Sino tomonidan yaratilgan she'riy dostonlarda inson salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularni oldini olish va davolash usullari alohida tahlil qilinadi. Maqolada mutafakkirning zamonaviy tibbiyot uchun ham dolzarb bo'lib qolayotgan g'oyalari, shuningdek, uning inson organizmi, turmush tarzi va tabiiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqadorlik haqidagi qarashlari ilmiy jihatdan baholangan. Shu bilan birga, Ibn Sino merosining bugungi davr tibbiyotida, xususan, profilaktik tibbiy xizmatlar, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning psixologik omillarini o'rganishda tutgan o'rni haqida ham fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается научное наследие великого энциклопедического учёного, мыслителя Средневекового Востока Абу Али ибн Сины, в частности, его бесценные труды в области медицины. В исследовании подробно освещено научно-философское значение произведения «Канон врачебной науки» и изложенные в нём медицинские взгляды. Особое внимание уделено поэтическим произведениям Ибн Сины, где анализируются вопросы сохранения здоровья человека, причины возникновения заболеваний, методы их профилактики и лечения. В статье также даётся научная оценка идей мыслителя о взаимосвязи организма человека, образа жизни и окружающей среды, которые остаются актуальными и для современной медицины. Кроме того, рассматривается роль наследия Ибн Сины в развитии современной медицины, в частности, в области профилактического здравоохранения, формирования здорового образа жизни и изучения психологических факторов возникновения заболеваний.

Abstract

This article examines the scientific legacy of the great encyclopedic scholar and medieval Eastern thinker Abu Ali Ibn Sina, particularly his invaluable works in the field of medicine. The study highlights the scientific and philosophical significance of his work The Canon of Medicine *and the medical concepts presented in it. Special attention is given to Ibn Sina's poetic treatises, where issues of preserving human health, the causes of diseases, as well as their prevention and treatment methods are analyzed in detail. The article also provides a scholarly evaluation of the thinker's views on the interrelation between the human body, lifestyle, and the natural environment-ideas that remain relevant for modern medicine. Furthermore, the role of Ibn Sina's heritage in contemporary healthcare, especially in preventive medicine, the promotion of a healthy lifestyle, and the study of psychological factors influencing illnesses, is thoroughly discussed.*

Ключевые слова: *Уржуза, постепенность, миджаз, климат, фактор, движение и бездействие, дух, энергия, правильное питание, характер, времена года.*

Kalit so'zlar: *Urjuza, tadrijiy, mijoz, xilt, omil, harakat va harakatsizlik, rux, quvvat, to'g'ri ovqatlanish, xarakter, yil fasllari.*

Key words: *Urzhuz, gradualness, mijaz, climate, factor, movement and inaction, spirit, energy, proper nutrition, character, seasons.*

KIRISH

Sharq uyg'onish davrining yirik allomalaridan biri bo'lgan Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot, balki falsafa, mantiq, musiqa, adabiyot va tabiiy fanlarning ko'plab sohalarida yuksak ilmiy meros qoldirgan. Uning ilmiy faoliyati butun insoniyat tamaddunida alohida o'rin tutadi. Ibn Sinoning asarlari orasida tibbiyotga bag'ishlangan "Al-Qonun fi't-tibb" jahon ilm-fanida beqiyos o'rin egallagan bo'lsa, "Urjuza" nomli she'riy dostoni esa uning ilmiy merosini adabiy-falsafiy ifoda bilan uyg'unlashtirgan noyob asarlardan biridir.

Mazkur doston tibbiy qarashlar, inson salomatligi, kasalliklarning sabablari va ularni davolash yo'llarini she'riy shaklda ifodalab, o'quvchi qalbiga yanada chuqurroq ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan

“Urjuza”ni nafaqat tibbiy qo‘llanma, balki inson va borliq haqidagi falsafiy mushohadalarning ifodasi sifatida ham o‘rganish mumkin. Unda tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, salomatlik va ruhiy holatning bir-biriga ta’siri, hayot falsafasi bilan bog‘liq ko‘plab g‘oyalar mujassamdir.

“Urjuza” dostonining falsafiy tahlili bizga Ibn Sinoning inson haqidagi qarashlarini chuqurroq anglash, uning ilmiy va adabiy merosini yaxlit holda o‘rganish, hamda Sharq uyg‘onish davri tafakkurida tibbiyot va falsafaning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib berish imkonini beradi. Shu bois ushbu asarni falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish, bugungi kunda ham ilmiy, ma’naviy va madaniy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilm-fan nuqtayi nazaridan Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi bugungi kunda hukmron bilim differensiaцuyasi va obektiv tendensiyadan inson olami va olamda insonning tutgan o‘rni haqidagi yaxlit integrativ fanni shakllanishiga olib boradigan intellektual asos va mazmun mohiyat kasb etuvchi strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan uni o‘rganish hamma vaqt dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Abu Ali ibn Sino o‘rgangan, shug‘ullangan fanlar qamrovi shu darajada keng bo‘lganki, u bir vaqtning o‘zida bu fanlarning mutaxasissi hamda yangi kashfiyotchi sifatida egasiga aylangan edi.

Buyuk qomusiy olimning hayoti va qoldirgan durdona noyob asarlarini tadqiq etish ishlari Vatanimiz mustaqilligidan so‘ng keng ommalashdi. Ibn Sinoning ko‘proq falsafa va tibbiyotga oid asarlari jahonning ko‘pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr etib kelinmoqda, ammo shu bilan birga yana ko‘pgina asarlari hali qo‘lyozma holda o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Faylasuf olimning tabobat sohasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bu borada uning tib ilmining sultoni “Shayxur - rais” yoki G‘arb olimlari tomonidan Avitsenna nomi bilan mashhur qilgan “Tib qonuni” qayta nashr etilishi, chuqur o‘rganilishi borasida ilmiy tadqiqot markazlar, Ibn Sino jamoat fondi, Sharq tabobati akademiyalarini tashkil etilishi fikrimizning yorqin isbotidir.

Ibn Sinoning saqlanib qolgan barcha tibbiy asarlarini tadqiq qilish va ommalashtirish, avvalo uning tibbiy qarashlarini tadrijiy taraqqiyot jarayonini aniqlashga yordam beradi deb qarasak, ikkinchidan, O‘rta Osiyolik ulug‘ olimning tabobat fani taraqqiyoti tarixiga qo‘shgan hissasini to‘laroq aniqlashga imkoniyat tug‘dirdi.

Allomani butun dunyoga mashhur qilgan “Tib qonuni”dan tashqari yana bir qancha tibbiy risolalari ham mavjuddir. Uning bizgacha etib kelgan tibiy asarlaridan biri “Urjuza” she’riy dostonidir. Garchi “Tib qonun” ni hajm jihatidan katta va mavzui jihatidan juda keng bo‘lsada, “Urjuza” undan yuqori turadi, chunki u ixchamligi bilan ham tib qoidalarining muhim omillarini o‘z ichiga olgan va tabobat haqida yozilgan hamma asarlarning o‘rniga o‘tadigan asar hisoblanadi. Ushbu maqolada allomaning “Urjuza” asaridagi zaruriy omillarini kursatib berish maqsad qilib olindi.

Urjuza suryoniy tildan olinganda tib konunlari to‘plami deb yuritiladi. Ushbu asar bir varaq nasriy muqaddima va 1326 baytdan iborat she’riy tarzda bayon etilgan dostondir.

“Urjuza fi-t-tibb” asari tabobat ilmining nazariyasi va umumiy masalalarini o‘rganuvchilarga mo‘ljallab darslik sifatida tuzilgan bo‘lib, aruzning rajaz vaznida yozilgan risoladir. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Ibn Sino ushbu asarini yozganida o‘zining mashhur “Tib qonunlari” asarini yozmagan ham edi. Ibn Sinoning tabobatga oid bu dostoni uning she’riyat sohasidagi ilk qadami deyish mumkin. Urjuza asarining arabcha matni Kalkuttada 1829-yil, Parijda 1956-yilda nashr etilgan. 1972-yili Toshkentda allomaning yubileyi munosabati bilan o‘zbekchaga H.Hikmatullaev va U Karimovlar tomonidan tarjima qilingan va nashr etilgan.

Ushbu asarning muqaddimi qismida tib ilmini sayoz va qoloq bilgan, tabobat va uning tarmoqlari to‘g‘risida bilimi bo‘lmagan, qonunlaridan tushunchasi yo‘q va o‘zida u haqida tasavvuri ham bo‘lmagan kishilar, xususan ozgina o‘rganib olish bilan uni o‘ziniki qilib olganlar, natijada bu fanda shayxlikni da’vo qila boshlaganlar haqida yozilgan. Ibn Sino bunday insonlarga qarata: “Men bu “Urjuza”ga kamolot to‘nini va husn sarposini kiygazdim, uni o‘rganish osonroq. Mashaqqati kamroq bo‘lsin deb, to‘qilishini oson, vaznini engil qildim”. Kimki unga idrok ko‘zi bilan qarasa, bu hajmi kichik asar tufayli katta ilmga erisha olishi mumkin”. Kim agar urjuzaga fahmi, idroki bilan qarasa va uni ilm xazinalariga kiritsa, bu kichik hajmli asar tufayli katta ilmga erishishga yordam beradi va kim usta, kim telbaligini, kim boshlang‘ich ma’lumotda-yu, kim ilmiy quvvatda etuk ekanligini, kim haqiqatchi-yu, kim yolg‘onchiligini ajratib oladi” - deb yozib qoldirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Abu Ali Ibn Sino bu asarida birinchi navbatda insonlarni davolash emas, balki unda bo'ladigan kasalliklarning sabablari hamda ularga to'gri tashxis qo'yish yo'llarini misollar bilan bayon etgan. Shundan Urjuza tibbiyot ilmiga bir muqaddima, uni o'rganuvchilar uchun darslik sifatida yozilgandir. Muqaddimada muallif risolani yozish sabablarini tushuntiradi. Asosiy qismida esa, tabobat saralanmasi, sirlari tibbiyotning nazariy hamda amaliy jihatlari mujassamlashgan bo'lib, bir qancha qoidalarni o'z ichiga olgan.

Asosiy qismning birinchisi ilmiy nazariy asosga ega bo'lib, unda tib tavsiri, ya'ni biror sababdan tanada paydo bo'lgan kasallikning alomatlari, kasalikni ketkazish sirlari va sog'liqni saqlashdan iboratdir. Bundan tashqari taqsimlanish, unsurlarga, mizojlar va ularni yoshga, jinsga, faslga qarab turlari, xiltlar, a'zolar, ruhlar, quvvatlar, fe'l (xarakter)lar haqida bayon etilgandir.

Inson tug'ilib, to vafot etgunga qadar, yashash davrida kasallik yoki sog'lom bo'lishi olti zaruriy omillarga bog'likligi, ularni buzilishi yoki o'z quvvatini o'tkazish asosiy sabab ekanligi ko'rsatilgan.

Bu olti zaruriy omillardan birinchisi - Havo bo'lib, uning quyosh va yulduzlarga, shahar va tog'larning joylashuviga, dengiz va shamollarga qarab o'zgarishi, ya'ni ifloslangan, chang to'zon shamolda inson salomatligiga yomon ta'siri haqida va aksincha, musaffo toza havo tana xujayralaridan tortib tana a'zolarining sog'lomligiga ta'sir etishi haqida bayon etilgan

Ikkinchi zaruriy omillardan biri ovqatlanish, eb ichish masalasidir. Unda foydali shifobaxsh o'simliklar, engil tez xazm bo'luvchii ovqatlar, ovqatni parchalash moddalari hamda toza buloq suvi, sut, sharbat kabi ichimliklar va shu bilan birga iflos suv havzalari, yomg'ir suvlarining xususiyatlari haqida aytib o'tilgan.

Uchinchi zaruriy omili uyqu va uyg'oqlik (bedorlik) haqidadir. Jumladan, Uyquga nafsoniy va hissiy quvvatlarning harakatlaridan dam olishdir, deb ta'rif berilgan. Uyqu badanlarga rutubat beradi yoki ularni bo'shashtiradi va ularni barhayot qilib turgan haroratni o'chiradi. Haddan tashqari ko'p uyqu ham salomatlikka zarar bo'lsa, haddan ortiq uyqusizlik , bedorlik ham ziyondir. U ruh va badanlarni ozdiradi, ko'rk va ranglarni buzadi, sarg'aytirib,zafaron etadi, ko'zni ich-ichiga tushiradi, xattoki ovkatlanish rejimini buzib, ishtaxasi yukoladi xamda ovqat hazmini buzadi. Tafakkurni susaytiradi, fikrlash qobiliyatini pasaytiradi, jismni oriqlatadi. Bularni kuyidagi satrlardan o'qish mumkin:

Mo'tadilliqda bo'lgan uygoqlik
hislarni tetiklik tomon harakatlantiradi.
Ishlarda kuchni qo'zg'otadi
va badanni chiqindilardan tozalaydi.
Uyg'oqlik uzayib ketsa uyqusizlik paydo bo'ladi-yu,
nafslarga g'am va bezovtalikni vujudga keltiradi.
U ruh va badanlarni ozdiradi, ko'rk va ranglarni buzadi
U ko'zni ich-ichiga tushiradi, ovqat hazmini buzadi.
Tafakkur qilishni yo'qqa chiqaradi va jismni oriqlatadi.

Zaruriy omillardan yana biri bu - bo'shalish va bo'shalmaslik masalasi bo'lib, inson organizmidagi barcha a'zolarini, jumladan miyaning ham har xil hiltlardan bo'shalishiga ehtiyoji borligi ko'rsatib o'tilgan.

Bahor faslida qon oldirish, inson organizmini har xil chiqindilardan (surgi) tozalash g'oyat manfaatli ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Terini kirdan tozalash uchun hamomdan foydalanish alohida bayt qilib yozilgan.

Zaruriy narsalardan keyingisi - nafsoniy kayfiyatlar, holatlar haqida bayon etilgan. Eng avvalo g'azab, nafrat, hasad kabi illatlar inson kayfiyati bilan birga, uning salomatligiga putur etkazuvchi asosiy omil deb ta'rif beradi.

Jumladan, G'azablanish kishida haroratni qo'zg'atadi
va ba'zan u jismga zarar ham etkazadi.
Qo'rqish esa, sovuqlikni qo'zg'atadi.
Ko'pincha u haddan oshib ketsa,hatto halok ham qiladi.
Shodliklarning ko'p bo'lishi badanning yayrashi demakdir.
Ba'zan u ortiqcha semirtish bilan ozor beradi.
Xafalik - qayg'u ba'zan oriq kishini o'ldiradi
va u ozishga muhtoj kishiga foyda qiladi.

Va, aksincha ezgulik, yaxshilik, shodliklarning ko'p bo'lishi badanning yayrashi, kayfiyatning chog' bo'lishi demakdir.

Oxirgi zaruriy va eng asosiy omillardan biri bu harakat hamda harakaцizlik masalasidir. Inson sog'lom turmush tarzini kechirishi, doim badan tarbiya va faol harakat bo'lishi ta'kidlangan. Bu harakatlar insonni yoshartirish bilan bir qatorda, har xil kasalliklardan, jumladan semirish, tanada yog' miqdorini oshishi bilan bo'g'im-mushaklarida, yurak qon tomirida va nafas olish organlarida xastaliklardan saqlashi haqidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

Bundan tashqari ushbu qismdainson tanasining ayrim-a'zolaridagi kasalliklarining belgilari, alomatlari haqida ham aytib o'tilgan. Tomir urishi va undan kasallik belgilarini topish, tupuk, jigar, siydik, axlat, teri kabilardan kasallikka dalil topish, qon, safro, savdo va balg'am g'alaba qilishining belgilari bayon qilingan. Buhron (krizis) va o'limdan ogohlantiruvchi belgilar yozib qoldirilgandir.

"Urjuza" risolasining ikkinchi qismi amaliyotga bag'ishlangan bo'lib, u sog'liqni saqlash va uning oldini olish tadbirlariga bag'ishlangan. Bunda xususan uyqu, harakat qilish, safarda bo'ladiganlar tadbirlari bayon etiladi. Ona qornidagi chaqaloq va dard tutish vaqtidagi tadbir, go'dakning o'ziga xos boshqa tadbirlari, haqida ommabop, tushunarli, sodda tilda so'z yuritilgan. Bu qism ikkiga ajratilgan bo'lib, biri qo'l bilan ikkinchisi dori darmon va g'izo bilan amalga oshiriladi.

Tibbiyotga oid urjuza asarlarining soni to'qqizta bo'lib ular quyidagilardir:

1. "Sog'liqni saqlash - gigienaga oid urjuza".
2. "To'rt fasllar haqida urjuza".
3. "Anatomiyaga oid urjuza".
4. "Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza".
5. "Tajribadan o'tgan tibbiy narsalar haqida urjuza".
6. "Tibbiy nasihatlar yozilgan urjuza".
7. "Mantiqqa oid yozilgan urjuza".
8. "Aloqa haqida urjuza".
9. "Tabobat haqida urjuza".

Ibn Sino yozgan bu dostonlarning sakkiztasi tibbiyotga, bittasi mantiqqa oid asardir. Bu dostonlarning eng barkamoli va ulug'i Urjuza asaridir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino ilmiy - ma'naviy merosining asl durdonasi hisolangan "Urjuza" asarining falsafiy mohiyati, asosan, insonning ichki dunyosini, ma'naviy qadriyatlarini va dunyoqarashini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu asarda insonning ijtimoiy va psixologik holati, uning hayotdagi maqsadi va kutilgan baxt haqidagi falsafiy konsepsiyalar berilgan.

Asarning markazida insonning o'zligi, uning zohiriy va botiniy olami markaziy o'rin olgan. Urjuza, shuningdek, insonni tabiat bilan uyg'unligi hamda tana sog'lomligi uning ruhiy pokligi bilan bir butunligik munosabatida ma'naviy kuchga ega ekanligini o'rgatadi. Inson his-tuyg'ulari, tafakkuri va ichki dunyosi bilan uyg'unlikda birlashishi orqali o'zining haqiqiy maqsadi va baxtni topishiga yordam beradi. Shuning uchun ham ushbu asar insonning ma'naviy rivojlanishini, uning dunyoqarashini va hayotdagi asl maqsadi haqidagi savollarga javob topishga yordam beradi. O'z navbatida bu kabi asarlarni ko'proq mutolaa qilishi, ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borilishi va to'g'ri xulosa chiqarib, hayoti davomida keng tadbiq - tashviq etish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Али ибн Сино Уржуза ёки 1326 байт тиббий ўгит -Т.: Ибн Сино тиббиёт нашриёти 1999 й.
2. Yuldasheva, L. S., & Abdukarimova, G. B. (2021). To Know The Truth Is To Hear The Voice Of The Soul. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 172-176.
3.Yuldasheva, L. Research project: Health Promotion Contemporary Issues in Tajikistan: Community and Women's Health Background
4. Юлдашева Л.С. (2022). Принцип эманации в онтологии Ибн Сино. Центральноазиатский журнал социальных наук и истории, 3 (12), 90-92.
5. Yuldasheva, L. S. Problems And Prospects Of Folk's Medicine. World Bulletin of Social Sciences, 34, 92-94.
7. Sagdullaevna, Y. L. (2025). Dialectics and Systematic Approach in Medicine. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(04), 48-50.
8. Абу Али ибн Сино Уржуза Узбекистон халқаро фонд жамғармаси – Т.: -1999й.-4 б.